

YOSH O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHDA MULOQOTNING AHAMIYATI

Mahmudova Charos Baxtiyor qizi

ShahDPI Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

E-mail: charosmahmudova8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishda muloqotning o'rni, o'qituvchining shaxsiga qo'yilgan kasbiy talablar, o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayoni haqida ma'lumot berilgan. Bo'lajak pedagoglarda xushmuomalalik, notiqlik madaniyatini shakllantirishning ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, muloqot, pedagogik mahorat, kasbiy talablar, notiqlik madaniyati, og'zaki metodlar.

Аннотация: В статье представлена информация о роли коммуникации в совершенствовании педагогического мастерства молодых учителей, требованиях, предъявляемых к личности учителя, а также о процессе профессионального развития учителя.

Ключевые слова: Интеграция, эффективность, независимое мышление, технологии воспроизведения, интерактивные методы.

Abstract: This article provides information about the role of communication in improving the pedagogical skills of young teacher's, the requirements placed on the teacher's personality, and the process of teacher professional development.

Keywords: Teacher, dialogue, pedagogical skill, professional requirements, public speaking.

Har qanday jarayon-harakatdir, moddiy dunyodagi narsalar yoki hodisalarning asta-sekin o'zgarishidir. O'qitish jarayoni ham yosh avlodga aqliy kuchlarni rivojlantirishga va axloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan harakatdir. Bugungi kunda yoshlarning ilmiy, salohiyatli bo'lishi uchun ko'pgina shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ayniqsa pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchilar soni tobora ortmoqda.

Bilamizki, insonlar qaysi bir sohada faoliyat yuritmasin , ularning bariga o'qituvchi ta'lim -tarbiya beradi. Ularni yaxshi kasb-hunar egalari bo'lib yetishishlari uchun beminnat yordam beradi. Buning uchun esa o'qituvchi har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli, fidokor bo'lishi talab etiladi. O'qituvchining ko'pqirrali va murakkab faoliyati zaminida yosh avlodni odobli , e'tiborli qilib tarbiyalash , ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi . Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: bolalarni o'qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish , ota -onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarini olib borish va hokazo. Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi , g'oyaviy e'tiqodliligi , o'z kasbini sevishi, bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqat o'qituvchini boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qiyotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. O'qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi ta'lim -tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi . O'qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun o'qituvchining salomatligiga ham ma'lum talablar qo'yiladi. O'qituvchining ovoz paychalari rivojlangan , ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lishi kerak, uzoq vaqt tikka tura olish, ko'p yurish, epchil harakat qilish kabi fazilatlariga ega bo'lmog'i shart. O'qituvchilik kasbiga kirish va pedagogik mahoratni egallash jarayoni , uni maktab o'qituvchilar jamoasiga kiritib, unda o'z o'rnini topib keta olishiga bog'liq. Jamoaning yordamidan yuz o'girmaslik , qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay , o'z xatolarini ko'ra bilish va uni yo'qotish uchun harakat qilish uni o'qituvchi bo'lib shakllanishidan darak beradi. Shu bilan birga o'z-o'zini tarbiyalab borishga , o'z ustida tinmay ishlashga harakat etish kasbiy fazilatlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'qituvchi shaxsining eng muhim sifati uning nutqi ravonligida . O'qituvchilar o'quvchilarga ma'lumotlarni to'g'ri va aniq holda yetkazib berishi lozim. O'qituvchilarning pedagogik mahorati shakllanishida muloqot madaniyatining o'rnini muhim .

Muloqot -ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashishidan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishidir. Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlarini va xatti-harakatlari o'quvchining ideali sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim

vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi.

2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi hamda o'rnini to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Muloqot Sharqona tarbiyada axloq ko'rki sanalgan. Sharq mutafakkirlari merosida muloqot azaldan insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositasi bo'lgan. Muloqotning asosiy quroli til hisoblangan. O'qituvchining tili, nutqiy qobiliyati o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, xulq-atvori va fikr yuritishlariga ulkan ta'sir etuvchi kuchli vositalardir. O'qituvchining bir-birlari bilan va ota-onalari bilan olib boradigan muloqoti orqali namoyon bo'ladi. Har bir pedagog ish faoliyatida muloyim, shirinsuxan bo'lmog'i lozim. Baqirib, qo'pol muomala bilan dars jarayoni olib borilsa, o'quvchilar ustozidan bezikib qolishadi. Pedagog nafaqat o'quvchilar bilan, balki ularning ota-onalari bilan ham ishlashlari kerak. So'zga boy, shirinsuxan kishilarning muomalasi yoqimli, ishi ham yurishgan bo'ladi. Bunday kishilarni yoqtiradilar, hurmat qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak pedagoglar uchun eng muhim talablardan biri-chiroyli muloqot egasi bo'lishdir. Chiroyli nutq egalarini hayotda barcha hurmat qiladi. Kasbiy faoliyatda yuqori natija ko'rsatish uchun, pedagogik mahoratni takomillashtirish uchun o'qituvchilar o'z ustida ishlab, nutqi ravon qilmog'i darkor. Xalqimizda, „Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar, yomon so'z bilan pichoq qinidan chiqar“ degan naql bor.

Bu bejizga aytilmagan, har bir o'qituvchi o'quvchilari bilan ijobiy holda suhbatlashishi kerak. Shundagina o'quvchilar fikrlarini qo'rqmasdan ayta oladigan bo'ladi. Endi yetishib chiqayotgan yosh pedagoglar ko'proq o'zlari ustlarida ishlashlari kerak. O'qituvchilar uchun ta'sis etilgan sertifikatlarni qo'lga kiritishga harakat qilishlari zarur. Zamon talabchan pedagoglar talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Musurmanova, N. J. Isaqulova, M. T. Jumaniyozova, A. Sh. Jumaev, „Umumiy pedagogika“ (2-qism) o'quv qo'llanma, Toshkent, „O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI“ 2020

- 
- 
- 2.B.X.Xodjayev „Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti"darslik .-T .:.,Sano-standart "nashriyoti,2017
 - 3.R.Mavlonova , O.To‘rayeva , K.Xoliqberdiyev ,, Pedagogika"darslik.- T.:.,O‘qituvchi"2001
 - 4.Adizov B.R.,.Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari":- Buxoro,2002
 - 5.Safin D.V. ,Muslima R.G. Ta'lim berish va o‘qishning interfaol usullari.O‘quv qo‘llanma .-T.2007.
 - 6.Farberman B .,, Ilg‘or pedagogik texnologiyalar ".-Toshkent:.,Fan",2000.
 - 7.I.Azimova, K . Mavlonova,,Ona tili va o‘qish savodxonligi "darslik ,2021

